# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1.Loyihaning turi:(Autsorsing usulida tibbiyot birlashmalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish boyicha) Shartnoma

2. Loyihaning nomi:
Yakkabog` tuman tibbiyot birlashmasi va Qashqadaryo UTSK o'rtasidagi 186 990 000 (Bir yuz sakson olti million to`qqiz yuz to`qson ming) so'mlik autsorsing usulida tibbiyot birlashmalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Yakkabog' tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 24-may

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yakkabog' tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti** **SH.Zoxidov.**
2022-yil «24» may

**Autsorsing usulida tibbiyot birlashmalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish yuzasidan**

## SHartnoma № 3

{year} й. «{day}» {month}    {number}-Son    24. 05. 2022й

Yakkabog` sh

Ustav asosida ish ko'ruvchi (keyinchalik "Ijaraga beruvchi" deb yuritiladi) **YAkkabog tuman tibbiyot birlashmasi bosh shifokori S.Juraev** va Nizom asosida ish ko'ruvchi (keyinchalik "**Autsorser**"deb yurutuluvchi) **Qashqadaryo UTSK boshligi S.Axmedov** lar ushbu shartnomani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5590 sonli Farmoni hamda sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha Respublika komissiyasining 2018 yil 18 sentyabrdagi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020yil 10 yanvardagi 16 sonli qarori

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzulmasidagi tashkilotlarda Autsorsing xizmatlari kursatish xulosasi asosida ushbu shartnomani tuzdik.

### 1.SHartnoma predmeti.

1.1. Autsorser Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur SHartnomaning 1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.
1.2. Autsorser mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini issiq ovqat hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasiga oladi.
1.3. Xizmat ko'rsatish muddati: 2022yil «24» 05 dan 2022 yil «31» Derabrgacha.
1.4. Ushbu shartnoma predmeti bo'lib, Autsorser tomonidan buyurtmachi mablag'lari hisobidan har kuni (belgilangan dam olish va bayram kunlaridan tashqari) 3 mahal issiq ovqatlantirishni tashkil etish hisoblanadi.

SHartnoma tuzish kuniga bemorlarning ro'yxatdagi sonidan kelib chiqqan holda hamda sanitariya me'yorlariga asosan tuzilgan taomnomaga asosan shartnoma summasi **186 990 000 (Bir yuz sakson olti million to`qqiz yuz to`qson ming** )so'mni tashkil etadi.
1.5. Autsorser tomonidan buyurtmachi bilan kelishilgan holda qo'shimcha shartlar asosida tibbiyot birlashmasi xodimlari uchun issiq ovqat tashkil etishga ruxsat etiladi.

### II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Autsorser quyidagi huquqlarga ega:
2.1.1. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;
2.1.2. Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
2.1.3. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;
2.1.4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;
2.1.5. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;
2.1.6. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;
2.1.7. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.2. Autsorser quyidagilarga majbur:
2.2.1. Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;
2.2.2. Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga qat'iy rioya etishi
2.2.3. Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga etkazilishini ta'minlashi;
2.2.4. Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;
2.2.5. SHartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;
2.2.6. Xizmatlarni sifatli, mazkur SHartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;
2.2.7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorser mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;

2.2.8. Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi aniqlanganda, Autsorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;
2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:
2.3.1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;
2.3.2. Autsorserning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;
2.3.3. SHartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Autsorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;
2.3.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.
2.4. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:
2.4.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;
2.4.2. Autsorserga mazkur SHartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;
2.4.3. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

**3. SHartnomada qo'llanilgan termin va tushunchalar.**

**3.1. Buyurtmachi- YAkkabog tuman tibbiyot birlashmasi** ;
**3.2.Autsorser- "Qashqadaryo UTSK "** ;
**3.3. To'lovchi- YAkkabog tuman tibbiyot birlashmasi**;
**3.4. SHartnoma summasi-** sanitariya me'yorlariga asosan bir bemorga to'g'ri keladigan me'yor asosida taomnoma bo'yicha sarflanadigan oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha bozor narxlari doirasida (hokimiyat tomonidan tasdiqlangan narxlardan oshmagan holda)Autsorserning barcha xarajatlarini (soliq va majburiy to'lovlar, xodimlar ish haqi bilan bog'liq to'lovlar va ajratmalar, transport xarajatlari, oshxona va omborxonadagi uskuna va anjomlarni saqlash va ta'mirlash xarajatlari va boshqalar, kommunal to'lovlardan tashqari) hisobga olib qo'shilgan 20 foizlik ustama bilan hisoblangan summa.
**3.5. Haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar qiymati-** bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-fakturalarda aks ettirilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan xizmatlar qiymati. Bunda sanitariya me'yorlariga asosan bir bemorga to'g'ri keladigan me'yor asosida taomnoma bo'yicha sarflangan oziq-ovqat mahsulotlarining har bir turi bo'yicha miqdorini o'rtacha bozor narxlariga ko'paytirib (hokimiyat tomonidan tasdiqlangan narxlardan oshmagan holda), 20 % lik ustama bilan hisoblangan qiymat **186 990 000 (Bir yuz sakson olti million to`qqiz yuz to`qson ming** )sum. Haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining asossiz ravishda shartnoma summasidan oshishiga yo'l qo'yilmaydi.

**4. SHartnoma tuzishning huquqiy asoslari.**

4.1 Mazkur shartnomani tuzish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **186 990 000 (Bir yuz sakson olti million to`qqiz yuz to`qson ming** )sum sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha Respublika komissiyasining xulosasi, shuningdek, umumiy ovqatlanishni tashkil etishni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy xujjatlar huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**5. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi**

5.1. Mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi **186 990 000 (Bir yuz sakson olti million to`qqiz yuz to`qson ming** )sumni tashkil etadi.
5.2. Autsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.
5.3. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Autsorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Autsorser va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.
5.4. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank ish kuni davomida SHartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

. Autsorser tomonidan shartnoma summasining 30 % idan kam bo'lmagan miqdorda dastlabki to'lovi bo'yicha hisob taqdim etiladi.
5.6. Autsorser tomonidan har 10 kun uchun taomnoma tuzilib, buyurtmachi bilan kelishiladi.
5.7. Har kuni soat 16-00 gacha tibbiyot birlashmasi bosh shifokori tomonidan yozma ravishda va tasdiqlangan holda kelgusi kun uchun ovqatlanishi belgilangan bemorlar soni bo'yicha Autsorserga buyurtma taqdim etiladi.
5.8. Autsorser tomonidan tayinlangan mas'ul shaxslar tomonidan har kun yakuni bo'yicha taomnomaga asosan haqiqatda sarflangan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori va qiymati ustama narxi qo'shilgan holda tegishli ma'lumot tayyorlanadi.
5.7. Buyurtmachi va Autsorser mas'ul shaxslari tomonidan ushbu ma'lumotlar asosida har o'n kunlik bajarilgan ishlar dalolatnomasi tuzib tasdiqlangandan so'ng, Autsorser rahbari va tibbiyot birlashmasi bosh shifokori tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan mablag' bo'yicha tegishli hisob-faktura tuzilib, rasmiylashtiriladi.
5.8. Hisob-faktura bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma bilan birgalikda Buyurtmachining markazlashgan buxgalteriya xizmatiga taqdim etiladi. SHartnomaga asosan to'lanmagan mablag' hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan belgilangan tartibda besh kunlik ish kuni ichida to'lab beriladi.

**6. Sifat va taomnoma.**

6.1. Tayyorlanayotgan taomlar va tayyor mahsulotlar sifati Sanitariya me'yor va qoidalarida belgilangan talablarga hamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablariga mos kelishi kerak.
6.2. Autsorser tomonidan ishlatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini tasdiqlovchi sertifikatlar va boshqa tegishli xujjatlar mavjud bo'lishi kerak. Ushbu masalada Buyurtmachi Brakeraj komissiyasi nazorat yuritadi.

**7. Mahsulot tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar.**

7.1. Buyurtmachi tomonidan tibbiyot birlashmasi balansidagi bemorlarni ovqatlantirish bilan bog'liq bo'lgan barcha oshxona va omborxona binolari, tegishli jihozlar, uskunalar, idish-tovoqlar Autsorserga "nol" stavkada beg'araz topshiriladi. Kommunal (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va kanalizatsiya) harajatlar Autsorser hisobidan qoplanadi.

7.2.YUqorida ko'rsatilgan bino va mulklar Autsorserga soz va yaroqli holda topshirilib, tegishli topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi, shuningdek, "nol"qiymatda beg'araz topshirilgan ushbu vositalar bo'yicha alohida ijara shartnomasi rasmiylashtiriladi.

7.3. Autsorser 20 % lik ustama doirasida quyidagi xarajatlarni amalga oshiradi:

Byudjetga belgilangan soliq va yig'imlar to'lovi, shtat jadvalidagi xodimlar ish haqi to'lovi, oziq-ovqat mahsulotlari xaridi, mahsulotlarni xarid qilish va autsorsing xizmati ko'rsatiladigan manzilga etkazish bilan bog'liq transport xarajatlari, ijaraga olingan bino, inshootlar va mulklarni saqlash va ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlar va boshqalar.

7.4. Autsorser zarur hollarda ko'rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish uchun o'zining jixozlaridan foydalanishi mumkin.

**8.Tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, nizolarni hal etish.**

**8.1. Autsorser quyidagi huquqlarga ega:**

- shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab ijaraga berilgan mulkni balansda saqlovchidan talab qilish;
- ijaraga olingan bino va inshootning ichki qismida texnik jihatdan jihozlash ishlarini amalga oshirish;

**8.2 Autsorser majburiyatlari:**

- YAkkabog' tuman tibbiyot birlashmasi bemorlar uchun sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish; YAkkabog' tuman tibbiyot birlashmasiningijaraga olingan oshxonasidan maqsadli va to'g'ri foydalanish; YAkkabog' tuman tibbiyot birlashmasiningijaraga olingan oshxonasini texnik jihozlashdan oldin balansda saqlovchining yozma roziligini olish;oziq-ovqat xom-ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarining sifatli saqlanishini ta'minlash;tibbiyot birlashmasining ijaraga olingan oshxonasidan foydalanishda sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiena normativlariga rioya qilish;ovqat tayyorlash bilan bog'liq xodimlarning tegishli tibbiy nazoratdan o'tganligini ta'minlash;

- Davlat sanitariya nazorati mas'ul xodimlari mas'ul tomonidan tegishli tekshirish va o'rganishlarga to'sqinlik qilmaslik, nazorat qiluvchi idoralar tomonidan talab etilgan ma'lumotlarni tegishli tartibda taqdim etish, brakeraj komissiyasi faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik.

**8.3. Buyurtmachi huquqlari:**

- Brakeraj komissiyasi faoliyatini to'g'ri tashkil etish;

- Autsorser bilan kelishgan holda sanitariya me'yorlari doirasida taomnomalarga o'zgartirish kiritish bo'yicha,shuningdek, sog'lom va to'laqonli ovqatlantirishni yanada sifatli bo'lishi yuzasidan tegishli takliflar berish;

**8.4. Buyurtmachi majburiyatlari:**

- Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va sanitariya-epidemiologik holatni muntazam nazorat qilish;brakeraj komissiyasi faoliyati bo'yicha nazorat o'rnatish;ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflanishini nazorat qilish;

8.5. Mazkur shartnoma shartlarini bajarmagan yoki to'liq bajarilmasligida aybdor tomonlar O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy–huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonun xujjatlariga asosan tegishli tartibda javobgar bo'ladilar.

8.6. Mazkur shartnoma amal qilish davrida yuzaga kelgan barcha nizo va tortishuvlar tomonlar o'rtasida muzokaralar o'tkazish orqali hal etiladi. Hal etilmagan masalalar bo'yicha tomonlar tegishli Iqtisodiy sudlarga qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilishlari mumkin.

**9. Boshqa shartlar.**

9.1. Ushbu shartnoma shartlariga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan yozma ravishda tasdiqlangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Hech qaysi tomon o'z huquq va majburiyatlarini boshqa tomonning yozma roziligisiz uchinchi tomonga o'tkazishi mumkin emas.

9.3. Tomonlar o'z rekvizitlari o'zgargan taqdirda boshqa tomonni o'z vaqtida xabardor etishi lozim.

9.4. Mazkur shartnoma 3 nusxada tuzildi va tomonlarning muxri bilan tasdiqlandi.

**10. SHartnomaning amal qilish muddati.**

10.1. Mazkur shartnoma YAkkabog tuman G'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy deb hisoblanadi hamda 2022 yil " 31 "Dekabr gacha amal qiladi.

**11. Tomonlarning manzili va rekvizitlari**

**"Autsorser"** **"Buyurtmachi"**

| **"Kashkadaryo UTSK"** | **YAkkabog tuman Tibbiyot birlashmasi** |
|---|---|
| **Adres: YAkkabog shaxri** | Adres:YAkkabog shaxri CHumich kuchasi 2 uy |
| ______________________ | ______________________ |
| **Tel./faks __** | Tel./faks (75) 58-25-074 |
| **h/r 20208000204428753001** | sh/b [YAKKABOG' TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI YAKKABOG' SHAHRI CHO'MICH K-SI 2-UY H/r. TOSHKENT SHAHAR MARKAZIY BANKI BB XKKM MFO: 00014, INN: 200708647 OKONX: 91510, YAKKABOG' TUMAN H/r: 23402000300100091010] |
| **Bank nomi Mikrokredit bank chirokchi** | INN 200708647 OKONX 91514 Uzb. Res. MVG'.____ |
| **MFO 00175 INN 205719179 OKONX** | YAkkabogtumanbuyichaGaznachilikBulinmasi<br>STIR 201122919 MFO 00014<br>Toshkent sh MB BB XKKM<br>x/r:23402000300100001010 |
| **Raxbar ______ S.Axmedov**<br>**(imzo) (F I O )**<br>**M.U** | Raxbar ______ S.Juraev<br>(imzo) (F I O )<br>M.U |

УТСК

## Юридик шахсни давлат руйхатидан утказиш тугрисида

# Г У В О Х Н О М А

Реестрдаги тартиб раками 628 628

2011 йил «12» октябр

Мазкур гувохнома юридик шахс «OASHOADARYO ULGURJI TA'MINOT» savdo korxonasi га
(Узбек тилида тулик номи)

Яккабог туман тадбиркорлик субъектларини давлат руйхатидан утказиш инспекцияси томонидан берилган.

(Юридик шахс булган дехкон хужаликлари, фермер хужаликлари учун ажратилган ер участкаси ва унинг майдони курсатилади).

| | | |
|---|---|---|
| Ташкилий –хукукий шакли: | ТХШ | 1010 |
| Мулкчилик шакли: | МШ | 114 |
| Почта манзили: | МХОБТ | 1710250 |
| Юридик шахс коди: | КТУТ | 20311185 |
| Тармок коди: | ХХТУТ | 80100 |
| Солик туловчининг идентификация раками: | СТИР | 205719179 |

Кушимча маълумот: Корхонанинг 2011 йил 10 октябрдаги 03 – сонли карорига асосан корхонанинг таъсисчиси узгартирилди.

М.У. Ваколатли орган рахбари У. Рашидов

ЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ МИЛЛИЙ ТИЗИМИ

Қашқадарё ССМ ДК "Қашсерт"ни сертификатлаштириш идораси

UZ.AMT.06.MAI.318 Қарши шаҳар, С. Усмонов кўчаси, 6-уй. Тел (8-375) 221-16-70

(Сертификатлаштириш идораси номи, манзили, Давлат реестридаги рақами)

№ 1675890

# МУВОФИҚЛИК СЕРТИФИКАТИ

" 2? " Август 20 19 йилдан

UZ.SM1.01.318.1802637 сон билан

Давлат реестрида руйхатга олинган

Амал қилиш муддати

" 24 " Август 20 22 йилгача

МУК коди ___ (маҳсулот учун)

ТИФ ИН коди ___ (маҳсулот учун)

Ўзбекистон Республикаси, Қашқадарё вилояти, "QASHQADARYO" UTSK.

Ушбу сертификат тасдиқлайдики, техникагича идентификацияланган маҳсулот

1-Навли буғдой унидан тайёрланган 0,6 kg кологили нон.

Серияли ишлаб чиқариш.

(миқдори ёки серияли ишлаб чиқариш)

меъёрий ҳужжат талабларига мувофиқдир.

ГОСТ 27842-88 нинг 1.2.1, 1.2.2, 1.2.3, 1.2.4 бандлари талаблари ва Сан Пин 0283-10.

Сертификатлаштириш схемаси: №3.

Буюртмачи (тайёрловчи, сотувчи) "QASHQADARYO" UTSK.

Ўзбекистон Республикаси, Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани, А.Темур кўчаси.

(манзили)

Сертификатга асос бўлган:

а) ҳужжатлар 2019 йил 19 августдаги намуна танлаш далолатномаси.

Қашқадарё ВДСЭНМни 17.08.2019 й. №042513 сонли Санитария-эпидемиологик-хулоса.

UZ.AMT.07.MAI.735: 14.08.2019 й. №672; 17.08.2019 й. № 425/1 сонли синов баённомалари

б) намуналар синови Қашқадарё ССМ ДК аккредитланган синов лабораториясининг

2019 йил 20 августдаги №879 сонли синов баённомаси. UZ.AMT.07.MAI.011

в) ишлаб чиқаришни текшириш далолатномаси 24.08.2019 йилдаги И.Ч текшириш далолатномаси.

Инспекцион назоратни Йилига бир маротаба. Қашқадарё ССМДК.

даврийлик билан амалга оширади.

Алоҳида ёзувлар: Маҳсулотларни ишлаб чиқариш, сақлаш, ташиш қоидаларига амал қилинган ҳолда мувофиқлик сертификати ҳақиқий деб ҳисобланади.

Мувофиқлик белгиси қўйилади. Товар кузатув ҳужжатларида.

Илова: Мувофиқлик сертификатининг нусхаси фақат сертификатлаштириш бўйича идора ёки асл нусха эгаси томонидан муҳр билан тасдиқлангандагина ҳақиқийдир

Сертификатлаштириш идораси раҳбари М.Ў. (имзо) А.С. ЎРОКОВ. (Ф.И.О)

Эксперт М.Ў. (имзо) Н.Р. РЎЗИЕВ. (Ф.И.О)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ

**ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТ ДАВЛАТ САНИТАРИЯ ЭПИДЕМИОЛОГИЯ НАЗОРАТ МАРКАЗИ**

*(санитария-эпидемиологик хулосани берган муассасанинг номи)*

**АККРЕДИТАЦИЯЛАНГАН. ГУВОХНОМА UZ.AMT.07.MAI №735.14.08.2009 йил**

*(аккредитация гувоҳномасининг олинган йили ва санаси)*

№ 042513

# САНИТАРИЯ-ЭПИДЕМИОЛОГИК ХУЛОСА

20**19** йил «**17**» **Август** дан 20**22** йил «**17**» **Август** гача ҳақиқий ҳисобланади

Ушбу хулоса билан: "Қашқадарё" УТСК томонидан

ГОСТ 27842-88 асосида ишлаб чиқарилаётган

Ишлаб чиқарилган (олиб келинган) маҳсулот: 1-навли буғдой унидан тайёрланган 0.6 кг-ли чоп-чоп нон.

**Сан-гиг лаб-я баён №425/1. 17.08.2019й (рух, маргимуш, қўрғошин, кадмий, симоб, мис, ГХЦГ, ДДТва унинг метаболити, кислотность, Афлотоксин В1, дезоксиниваленол, Т2-токсин, зеараленон, гексохлорбензол), радиология лаб-я баённома №672. 14.08.2019 й бўйича цезий-137, стронций-90 солиштирма фаоллиги САНҚМ 0283-10 талабига жавоб беради.**

*(ўтказилган лаборатория текширувлари баённомалари, натижалари)*

**Санитария қоида ва меъёрлари талабларига ЖАВОБ БЕРАДИ.**

**Хулоса олувчи:** **"Қашқадарё" УТСК, Қашқадарё вилоят**

*(муассаса номи ва юридик манзили)*

**Яккабоғ туман А.Темир кўчаси 80-уйда жойлашган.**

*(олиб келувчининг юридик манзили ёки маҳсулот ишлаб чиқарувчининг манзили)*

**Қўлланиладиган, ишлатиладиган соҳа:** **Истеъмолга ишлаб чиқариш учун**

Ишлатиш, ташиш, сақлаш ва хавфсизлигига оид шарт-шароитлар:

Санитария гигиена қоидаларига риоя этиш шарт.

Махсус белгилар: Санитария-эпидемиологик хулосаси нусхаси берувчи корхона муҳри билан ҳақиқий хисобланади.

Бош шифокор [signature] Ё.Бўриев

М.Ў.

20**19** йил «**17**» **Август**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ МИЛЛИЙ ТИЗИМИ

Қашқадарё ССМ ДК "Қашсерт"ни сертификатлаштириш идораси

UZ.AMT.06.MAI.318 Қарши шаҳар, С. Усмонов кўчаси, 5-уй, Тел (8-375) 221-16-70

№ 1675891

# МУВОФИҚЛИК СЕРТИФИКАТИ

"24" Август 2019 йилдан

UZ.SMT.01.318.1802648 сон билан

Давлат реестрида рўйхатга олинган

Амал қилиш муддати

"24" Август 2022 йилгача

МУК коди (маълумот учун)

ТИФ МН коди (маълумот учун)

Ўзбекистон Республикаси. Қашқадарё вилояти "QASHQADARYO" UTSK.
(корхона, фирма, ишлаб чиқарувчи мамлакат)

Ушбу сертификат тасдиқлайдики, тегишлича идентификацияланган маҳсулот:

1-тоифали мол гўшти. (Янги сўйилган).

(номи, тури, шили, русуми)

Серияли ишлаб чиқариш.
(миқдори ёки серияли ишлаб чиқарилиши)

меъёрий ҳужжат талабларига мувофиқдир.

ГОСТ 779-55нинг 2, 3, 5, 6, 13 бандлари талаблари ва СанПин 0283-10.

Сертификатлаштириш схемаси: №3

Буюртмачи (тайёрловчи, сотувчи) "QASHQADARYO" UTSK.

Ўзбекистон Республикаси. Қашқадарё вилояти. Яккабоғ тумани. А.Темур кўчаси.

Сертификатга асос бўлган

а) ҳужжатлар 2019 йил 19 августдаги намуна танлаш далолатномаси. №60 сонли Вет хулоса. Қашқадарё ВДСЭНМнинг 19.08.2019 й. №042512 сонли Санитария-эпидемиологик хулоса. UZ.AMT.07.MAI.735: 14.08.2018 й. №673; 17.08.2018й. №425; 18.08.2018й. №38/1; 19.08.2018й №446 баённома

б) синов баённомаси Қашқадарё ССМ ДК аккредитланган синов лабораториясининг 2019 йил 20 августдаги №880 сонли синов баённомаси. UZ.AMT.07.MAI.011.

в) ишлаб чиқаришни текшириш далолатномаси 24.08.2019 йилдаги И.Ч текшириш далолатномаси.

Инспекцион назоратни Йилига бир маротаба. Қашқадарё ССМДК.

даврийлик билан амалга оширади

Алоҳида ёзувлар: Маҳсулотларни ишлаб чиқариш, сақлаш, ташиш қоидаларига амал қилган ҳолда мувофиқлик сертификати ҳақиқий деб ҳисобланади.

Мувофиқлик белгиси қўйилади: Товар кузатув ҳужжатларига.

Илова: Мувофиқлик сертификатининг нусхаси фақат сертификатлаштириш бўйича идора ёки асл нусха эгаси томонидан муҳр босилиб тасдиқлангандан сўнг ҳақиқийдир.

Сертификатлаштириш идораси раҳбари М.Ў. (имзо) А.С. ЎРОҚОВ. (Ф.И.О)

Эксперт М.Ў. (имзо) Н.Р. РЎЗИЕВ. (Ф.И.О)

УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТ ДАВЛАТ САНИТАРИЯ ЭПИДЕМИОЛОГИЯ НАЗОРАТ МАРКАЗИ

АККРЕДИТАЦИЯЛАНГАН, ГУВОХНОМА 02.АМТ 07 МАI №735.14 08.2009 йил

№ 032512

# САНИТАРИЯ-ЭПИДЕМИОЛОГИК ХУЛОСА

20 19 йил «19» Август дан 20 22 йил «19» Август гача хақиқий хисобланади.

Ушбу хулоса билан "Қашқадарё" УТСК томонидан

ГОСТ 779-55 асосида ишлаб чиқарилаётган

Ишлаб чиқарилган (олиб келинган) махсулот: [illegible] мол гўшти (янги сўйилган)

Сан.гиг.лаб.и бал. №452-2, 17.08.19 (қўрғошин, маргимуш, кадмий, симоб, мис, рух, ГХЦГ, ДДТ ва метаболитлари), бак.лаб.я бал. №448, 19.08.19 (ТМАФАнМ, ИТБГ, патоген микроорганизмлар, сальмонелла, L.monocytogenes), паразит.лаб. [illegible] 19.08.19, радиология лаб [illegible] 18.08 бўйича цезий-137, стронций-90 солиштирма фаоллиги САНҚМ 0283-10 талабига жавоб беради.

Санитария қоида ва меъёрлари талабларига ЖАВОБ БЕРАДИ

Хулоса олувчи: "Қашқадарё" УТСК, Қашқадарё вилояти

— Яккабоғ тумани А.Темур кўчаси 60-уйида жойлашган

Қўлланиладиган, ишлатиладиган соҳа: [illegible]

Ишлатиш, ташиш, сақлаш ва хавфсизлигига оид шарт-шароитлар

Санитария-гигиена, ҳамда ветеринария қоидаларига риоя этиш шарт

Махсус белгилар: Санитария-эпидемиология хулосаси нусхаси берувчи идоранинг мухри билан хақиқий хисобланади

А.Бўриев

М.У.

20 19 йил «19» Август